



HUDUDLARARO MOLİYAVIY MUTANOSIBLIKNI TA'MINLASHDA FISKAL SIYOSATNING O'RNI VA AHAMIYATI

THE ROLE AND IMPORTANCE OF FISCAL POLICY IN ENSURING INTERREGIONAL FINANCIAL BALANCE

¹Alimqulov Hikmatulla
Baxrom o'g'li

¹Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti.

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqola hududlararo moliyaviy nomutanosiblikni bartaraf etishda fiskal siyosatning rolini, fiskal siyosatning davlat xarajatlari, soliq siyosati va budjetlararo transfertlar orqali hududiy rivojlanish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlarini o'rganadi. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida fiskal siyosatning samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi institutsional, iqtisodiy va siyosiy omillar muhokama qilinadi.

Eng. - This article examines the role of fiscal policy in addressing financial imbalances between regions, as well as the mechanisms through which fiscal policy via government expenditures, tax policy, and intergovernmental budget transferts ensures regional development and socio-economic stability. In addition, based on international experience, the study discusses institutional, economic, and political factors that influence the effectiveness of fiscal policy.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *fiskal siyosat, hududiy rivojlanish, moliyaviy nomutanosiblik, budjet transfertlari, soliq siyosati.*
❖ *fiscal policy, regional development, financial imbalance, budget transferts, tax policy.*

Kirish.

Fiskal siyosat davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi asosiy vositalaridan biri bo'lib, makroiqtisodiy rivojlanish yo'nalishini soliq va budjet mexanizmlari orqali belgilashga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitlarda global iqtisodiy beqarorlikning kuchayishi, dunyo iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash zaruriyati fiskal siyosatning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Hududlararo moliyaviy nomutanosiblik davlatning strategik va ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarining samaradorligini pasaytiradi hamda ayrim hududlarning rivojlanish

salohiyatini cheklaydi. Bu tafovutlar hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga to'sqinlik qilishi bilan birga, hududlararo tengsizlikning kuchayishiga sabab bo'ladi. Shu sababli hududlar o'rtasidagi moliyaviy nomutanosiblikni yumshatish va resurslarni adolatli taqsimlash masalalari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida eng dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, budjet resurslari va moliyaviy imkoniyatlar orasidagi sezilarli tafovutlar hududlararo rivojlanish farqliligini yanada oshiradi va fiskal siyosatning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining

“2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonunida hududlar o‘rtasidagi moliyaviy nomutanosiblikni yumshatish maqsadida jami 19 650,0 mlrd. so‘m miqdoridagi mablag‘ ajratilishi belgilangan [1]. Ushbu mablag‘lar hududlararo budjet transfertlari va boshqa fiskal mexanizmlar orqali taqsimlanib, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish salohiyatini oshirish hamda moliyaviy resurslar tengsizliklarini kamaytirishga qaratilgan.

Shu sababli samarali hududiy fiskal siyosatni ishlab chiqish davlatning asosiy vazifalaridan biridir. Soliq tushumlarini maqsadli taqsimlash va budjet transfertlari orqali hududlar o‘rtasidagi moliyaviy nomutanosiblikni kamaytirish, hududlarning barqaror rivojlanishini ta‘minlash va mahalliy darajada iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish mumkin. Shu bois, hududlararo moliyaviy nomutanosiblikni kamaytirishda fiskal siyosatning samaradorligini tadqiq etish dolzarbdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Xorijiy tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, fiskal siyosat hududlar va aholi qatlamlari o‘rtasidagi moliyaviy tengsizlikni kamaytirishda qayta taqsimlovchi vosita hisoblanadi. Jumladan, M. Malla va P. Pathranarakul fiskal siyosatning daromadlar tengsizligiga ta‘siri institutsional salohiyat bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ta‘kidlab, samarali soliq-budjet mexanizmlari hududiy moliyaviy tafovutlarni qisqartirishga xizmat qilishini qayd etadi [2].

N. Lustig fikriga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda fiskal siyosat, xususan, ijtimoiy yo‘naltirilgan budjet xarajatlari va progressiv soliqlar orqali hududlar va aholi guruhlari o‘rtasidagi moliyaviy tengsizlikni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin [3]. Muallif fiskal transfertlar ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynashini asoslaydi.

D. Loras, G. Gómez va J. Díaz tadqiqotlariga ko‘ra, fiskal qayta taqsimlash

mexanizmlari mintaqalar o‘rtasidagi daromad tafovutlarini yumshatadi hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishning muvozanatli bo‘lishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi [4]. Fikrimizcha, budjet transfertlari hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy farqlarni kamaytirishda samarali instrument hisoblanadi.

OECD tadqiqotlarida fiskal siyosatning soliq va xarajatlar tarkibi orqali hududiy va ijtimoiy tengsizliklarga ta‘siri tahlil qilinib, maqsadli budjet xarajatlari va qayta taqsimlovchi mexanizmlar moliyaviy nomutanosiblikni kamaytirishga xizmat qilishi ta‘kidlanadi [5].

J. Wu va L. He fikriga ko‘ra, hududlar o‘rtasidagi moliyaviy tafovutlar uzoq muddatli iqtisodiy muammolarga olib kelishi mumkin bo‘lib, bunday nomutanosibliklarni yumshatishda davlatning faol fiskal aralashuvi zarur hisoblanadi [6]. Mualliflar fiskal transfertlar hududiy tengsizliklarni bartaraf etishda muhim vosita ekanligini asoslaydi.

A. Jo‘rayevning ilmiy qarashlariga ko‘ra, hududlararo moliyaviy mutanosiblikni ta‘minlashda fiskal siyosat davlatning eng samarali tartibga soluvchi vositalaridan biri hisoblanadi. Muallif ta‘kidlashicha, soliq ma‘muriyatini takomillashtirish va budjet resurslarini maqsadli qayta taqsimlash orqali hududlar o‘rtasidagi moliyaviy nomutanosibliklarni kamaytirish mumkin. Ayniqsa, iqtisodiy salohiyati past hududlarni qo‘llab-quvvatlashda transfertlar, subvensiyalar va soliq imtiyozlarining samarali qo‘llanilishi hududiy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi [7]. Shu bilan birga, olim fiskal siyosatning oshkoraligi va institutsional samaradorligi hududlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini alohida qayd etadi.

O. Meyliyev fikriga ko‘ra, hududlararo moliyaviy nomutanosiblikning asosiy sabablari hududlarning soliq bazasi va iqtisodiy salohiyatidagi farqlar bilan bog‘liq bo‘lib,

mazkur tafovutlarni yumshatishda davlatning fiskal siyosati hal qiluvchi ahamiyatga ega [8]. Muallif budjetlararo transfertlar va qayta taqsimlovchi mexanizmlar orqali hududlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash mumkinligini ta'kidlaydi.

U. Ergashev fikriga ko'ra, hududlarning soliq salohiyati va budjet daromadlari o'rtasidagi tafovutlar hududiy moliyaviy nomutanosiblikning asosiy omillaridan biri bo'lib, fiskal siyosat ushbu tafovutlarni tartibga soluvchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi [9].

N. Sharipov mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliq salohiyatining rolini ta'kidlab, hududlar moliyaviy mustaqilligini oshirish orqali moliyaviy nomutanosiblikni kamaytirish mumkinligini qayd etadi [10]. Uning fikricha, samarali fiskal siyosat hududlararo tenglikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

M. Alimardonov va J. Tuxtabayev tadqiqotlariga ko'ra, hududlarning soliq salohiyatini to'g'ri baholash va fiskal resurslarni adolatli taqsimlash hududiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarni kamaytirishga xizmat qiladi [11]. Mualliflar fiskal siyosatni iqtisodiy modellash asosida takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

D. Uskenbayeva fikriga ko'ra esa, mahalliy budjetlar barqarorligini ta'minlash hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil bo'lib, fiskal mexanizmlarning samarali qo'llanilishi hududlar o'rtasidagi moliyaviy tafovutlarni yumshatishga imkon beradi [12].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida deduktiv va induktiv metodlar, shuningdek, mantiqiy va qiyosiy tahlil, tarixiy yondashuv, statistik usullar hamda sistemali tahlil metodlari keng qo'llanildi.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Fiskal siyosat davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, soliq solish va davlat xarajatlari sohasidagi chora-tadbirlar majmuini ifodalaydi hamda makroiqtisodiy barqarorlikka erishishga qaratiladi. Fiskal siyosatning mohiyati davlatning budjet parametrlarini boshqarish orqali yalpi talab va yalpi taklifga maqsadli ta'sir ko'rsatishida namoyon bo'ladi. Ushbu ta'sir mexanizmi hududlar kesimida alohida ahamiyat kasb etib, hududlar o'rtasidagi moliyaviy nomutanosiblikni yumshatish imkonini beradi.

Fiskal siyosatni amalga oshirishda davlat tomonidan qo'llaniladigan asosiy instrumentlar davlat xarajatlari va soliq siyosati hisoblanadi. Mazkur instrumentlar orqali iqtisodiy faollik darajasi, bandlik, investitsiya muhitining rivojlanishi hamda hududlararo moliyaviy muvozanatga ta'sir ko'rsatiladi (1-rasm).

Davlat xarajatlari ijtimoiy soha, infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash, transport va kommunal xizmatlar kabi yo'nalishlarni moliyalashtirishni qamrab oladi. Bu xarajatlar nafaqat joriy ehtiyojlarni qondirishga, balki uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lgan institutsional va moddiy asoslarni yaratishga xizmat qiladi. Ayniqsa, hududlar kesimida davlat xarajatlarining ilmiy asoslangan, adolatli va strategik taqsimlanishi mamlakat ichida moliyaviy mutanosiblikni ta'minlashning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Oqilona taqsimlangan davlat xarajatlari iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan hududlarda ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, investitsion muhitni yaxshilash hamda yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi – maktablar, shifoxonalar, yo'llar va kommunal tarmoqlarning yaxshilanishi aholining yashash sharoitlarini sezilarli darajada yaxshilaydi, hududlararo ijtimoiy tafovutlarni kamaytiradi.



1-rasm. Fiskal siyosat instrumentlari

Soliq siyosati esa soliq stavkalari, soliq bazasi va soliq imtiyozlarini belgilash orqali iqtisodiy subyektlarning moliyaviy xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatadi. Hududiy soliq preferensiyalari va imtiyozlarining joriy etilishi investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish hamda hududlarning daromad bazasini mustahkamlash imkonini beradi.

Shuningdek, fiskal siyosat doirasida budjetlararo munosabatlar muhim instrument sifatida namoyon bo'ladi. Budjet transfertlari, subvensiyalar va dotatsiyalar orqali moliyaviy resurslar hududlar o'rtasida qayta taqsimlanib, hududlararo moliyaviy nomutanosiblikni yumshatishga erishiladi. Ushbu mexanizm hududlarning fiskal barqarorligini ta'minlash va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarni qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fiskal siyosatning asosiy instrumentlari sifatida davlat xarajatlari va soliqlar namoyon bo'ladi. Davlat xarajatlari ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish, infratuzilmaga investitsiyalar, mudofaa xarajatlari hamda davlat boshqaruvi tizimini saqlashni qamrab oladi. Soliq tizimi esa jismoniy va yuridik

shaxslarning daromadlariga solinadigan to'g'ridan-to'g'ri soliqlar, iste'molga solinadigan egri soliqlar hamda mol-mulk soliqlaridan iborat bo'ladi. Soliq stavkalari va budjet xarajatlari tarkibining o'zgarishi xususiy sektor ixtiyoridagi moliyaviy resurslar hajmiga ta'sir ko'rsatib, hududlar miqyosida iste'mol va investitsiya faolligini tartibga solishga xizmat qiladi.

Hududiy rivojlanish nuqtai nazaridan fiskal siyosatni iqtisodiy kon'yunkturaga ta'sir ko'rsatish xarakteriga ko'ra rag'batlantiruvchi va cheklovchi turlarga ajratish mumkin. Rag'batlantiruvchi fiskal siyosat davlat xarajatlarini oshirish va soliq yukini kamaytirish orqali hududlarda iqtisodiy faollikni kuchaytirishga qaratilgan bo'lib, bu budjet taqchilligi hisobiga amalga oshiriladi. Cheklovchi fiskal siyosat iqtisodiyotda ortiqcha talab shakllanishining oldini olish maqsadida davlat xarajatlarini qisqartirish va soliqlarni oshirishni nazarda tutadi.

Amalga oshirish mexanizmiga ko'ra fiskal siyosat diskretion va avtomatik shakllarga bo'linadi. Diskretion fiskal siyosat qonun chiqaruvchi organlar tomonidan soliq stavkalari va davlat xarajatlarining

o'zgartirilishi orqali yuritiladi. Avtomatik fiskal siyosat esa ichki barqarorlashtiruvchi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Bunda progressiv soliq tizimi va ijtimoiy transfertlar mexanizmi hududlar o'rtasidagi iqtisodiy farqlarni yumshatishga xizmat qiladi.

Fiskal siyosatning asosiy maqsadlari barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, inflyatsiyani nazorat qilish, bandlik darajasini oshirish va budjet tizimining muvozanatini saqlashdan iborat. Ushbu maqsadlarning ustuvorligi mamlakat iqtisodiyotining joriy holati hamda hududiy rivojlanish darajasiga qarab belgilanadi.

Fiskal siyosatning hududlararo moliyaviy tengsizlikni kamaytirishdagi samaradorligi budjet resurslarini adolatli va samarali taqsimlash tamoyillariga asoslanadi. Samaradorlik tamoyili budjet mablag'larining ijtimoiy-iqtisodiy samarasini maksimal darajada oshirishni talab etsa, adolatlilik tamoyili soliq yukining hududlar va aholi qatlamlari o'rtasida muvozanatli taqsimlanishini nazarda tutadi. Shaffoflik va barqarorlik tamoyillari esa budjet jarayonining ochiqligi hamda uzoq muddatli fiskal muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Fiskal siyosat yalpi talabga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Davlat xarajatlarining oshirilishi hududlarda tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni kuchaytirib, iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi. Soliq yukining kamaytirilishi esa aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning tasarrufidagi daromadlarni oshirib, iste'mol va investitsiyalarni kengaytiradi. Shu bilan birga, fiskal siyosat uzoq muddatda yalpi taklifga ham ta'sir ko'rsatadi. Infratuzilma, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga yo'naltirilgan davlat investitsiyalari hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi.

Budjet multiplikatori konsepsiyasi fiskal siyosat vositalarining hududiy iqtisodiyotga qanday uzviy va bosqichma-bosqich ta'sir ko'rsatishini izohlab beradi. Ushbu yondashuvga ko'ra, davlat xarajatlarining dastlabki oshishi faqat bir martalik sarf bilan

cheklanib qolmaydi, balki daromadlar zanjiri orqali bir necha bosqichda ko'payib boruvchi iqtisodiy faollikni yuzaga keltiradi. Ya'ni, davlat tomonidan yo'naltirilgan mablag'lar korxonalar daromadini oshiradi, bu esa ish haqi va boshqa to'lovlar orqali aholining daromadiga aylanadi, o'z navbatida esa iste'mol xarajatlarining ortishi orqali yangi ishlab chiqarish hajmini rag'batlantiradi.

Multiplikativ ta'sirning miqdori, avvalo, aholi va xo'jalik subyektlarining iste'molga bo'lgan moyilligi darajasi bilan belgilanadi. Agar qo'shimcha daromadning katta qismi iste'molga yo'naltirilsa, ichki talab kengayadi va multiplikator samarasi yuqori bo'ladi. Aksincha, jamg'armaga moyillik yuqori bo'lgan sharoitda yoki mablag'larning bir qismi iqtisodiy aylanishdan chiqib ketsa, ushbu ta'sirning kuchi pasayadi.

Hududiy nuqtai nazardan, multiplikator samarasi mahalliy ishlab chiqarish bazasining rivojlanganlik darajasi, logistika infratuzilmasi va xizmatlar sektorining kengligi bilan ham chambarchas bog'liq. Mahalliy resurslar va ishlab chiqarish imkoniyatlari yetarli bo'lgan hududlarda davlat xarajatlari ko'proq ichki iqtisodiy aylanmada qoladi va natijada ko'proq qo'shimcha qiymat yaratiladi. Aksincha, ochiq iqtisodiyot sharoitida import hajmining oshishi davlat xarajatlari natijasida yuzaga kelgan qo'shimcha talabning bir qismini tashqi bozorlarga yo'naltiradi, bu esa multiplikativ ta'sirni ma'lum darajada susaytiradi.

Shu bois, budjet multiplikatori samaradorligini oshirish uchun hududiy iqtisodiyotda mahalliy ishlab chiqarish zanjirlarini rivojlantirish, kichik va o'rta biznesni kengaytirish, hamda xizmatlar sohasini chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada davlat xarajatlarining har bir birligi hududiy iqtisodiyotda yanada katta va barqaror iqtisodiy natijalarni yuzaga keltiradi. O'zbekiston amaliyotida hududlararo moliyaviy nomutanosiblikni yumshatishda fiskal siyosat muhim rol o'ynamoqda. Xususan, budjetlararo transfertlar tizimi orqali iqtisodiy

salohiyati nisbatan past hududlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilgan. Buning asosiy sababi sifatida hududlar o'rtasidagi soliq bazasi va iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlarni keltirish mumkin. Ko'plab viloyatlar o'z daromadlari hisobidan barcha xarajatlarni qoplay olmaydi, shuning uchun

markaziy budjetdan ajratiladigan transfertlar orqali kam rivojlangan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi ta'minlanadi. Quyidagi 1-jadvalda 2023-2025-yillarda hududlar bo'yicha daromadlar, xarajatlar va budjetlararo transfertlar ko'rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval

2023-2025-yillarda hududlar bo'yicha daromadlar, xarajatlar va budjetlararo transfertlar ko'rsatkichlari (mlrd. so'm) [13]

№	Hududlar nomi	2023-yil			2024-yil			2025-yil		
		Daromad	Xarajat	Transfert	Daromad	Xarajat	Transfert	Daromad	Xarajat	Transfert
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 843,7	6 806,0	3 962,3	2 933,1	5 637,5	2 077,9	3 346,3	5 569,3	2 223,0
2	Andijon viloyati	3 931,2	8 137,3	4 206,0	3 782,0	6 757,4	1 913,8	4 513,1	6 693,1	2 180,0
3	Buxoro viloyati	3 876,6	5 968,5	2 091,9	3 898,8	5 348,1	361,1	4 573,3	5 267,1	693,8
4	Jizzax viloyati	2 227,9	4 645,7	2 417,8	2 151,1	3 847,2	888,6	2 523,6	3 626,7	1 103,1
5	Qashqadaryo viloyati	4 607,5	10 519,3	5 911,8	4 572,5	6 585,8	927,0	5 264,2	6 238,5	974,3
6	Navoiy viloyati	3 039,4	4 046,1	1 006,7	2 690,3	3 802,6	182,5	3 384,2	3 476,7	92,5
7	Namangan viloyati	3 516,8	8 113,6	4 596,7	3 391,4	5 983,4	1 984,0	3 942,8	6 171,2	2 228,4
8	Samarqand viloyati	5 100,1	8 778,5	3 678,4	5 312,6	7 678,6	1 588,5	5 915,3	8 008,6	2 093,3
9	Surxondaryo viloyati	3 043,0	7 944,0	4 901,0	2 989,1	5 541,5	1 832,8	3 464,7	5 527,0	2 062,3
10	Sirdaryo viloyati	1 390,3	3 147,7	1 757,3	1 528,1	2 752,1	901,8	1 739,5	2 551,6	812,1
11	Toshkent viloyati	6 024,1	7 770,3	1 746,2	5 448,4	7 041,6	517,4	6 824,3	7 086,9	262,6
12	Farg'ona viloyati	5 169,3	9 889,9	4 720,6	5 273,6	8 131,9	1 943,7	6 027,6	8 171,4	2 143,8
13	Xorazm viloyati	2 740,7	5 610,0	2 869,3	2 876,9	4 691,1	1 203,8	3 166,4	4 497,2	1 330,8
14	Toshkent shahri	8 218,3	10 364,1	2 145,8	10 176,9	13 013,0	513,9	11 108,5	11 370,7	262,2
Jami		55 728,9	101 740,7	46 011,7	57 024,7	86 811,6	16 836,7	65 793,8	84 256,0	18 462,2

Jadval ma'lumotlari 2023-2025-yillar davomida O'zbekiston hududlari kesimida budjet daromadlari, xarajatlari va budjetlararo transfertlar hajmida sezilarli tarkibiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi. 2023-yilda hududiy budjetlar xarajatlari daromadlarga nisbatan yuqori bo'lib, bu holat budjetlararo transfertlarning katta hajmda ajratilishiga olib kelgan. Xususan, jami transfertlar hajmi 46 011,7 mlrd. so'mni tashkil etib, hududlar moliyaviy barqarorligining markaziy budjet qo'llab-quvvatlashiga yuqori darajada bog'liqligini namoyon etadi.

2024-yilga kelib transfertlar hajmining keskin kamaygani kuzatildi. Jami transfertlar 16 836,7 mlrd. so'mgacha qisqargan bo'lib, bu holat mahalliy budjetlarning daromad bazasini mustahkamlash, xarajatlarni optimallashtirish hamda fiskal intizomni kuchaytirishga

qaratilgan islohotlar samarasi bilan izohlanadi. Ayniqsa, Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy va Toshkent viloyatlarida transfertlarga bo'lgan ehtiyojning kamayishi hududlarning soliq salohiyati oshib borayotganidan dalolat beradi.


2025-yilda esa hududiy budjet daromadlarining izchil o'sishi fonida transfertlar hajmining nisbatan barqarorlashuvi kuzatiladi. Jami transfertlar 18 462,2 mlrd. so'mni tashkil etib, ularning asosiy qismi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Namangan, Farg'ona va Surxondaryo viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. Bu hududlarda xarajatlar daromadlarga nisbatan yuqori bo'lib qolayotgani ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va infratuzilma ehtiyojlari bilan bog'liqdir.

Umuman olganda, jadval ma'lumotlari O'zbekistonda olib borilayotgan fiskal siyosat

hududlararo moliyaviy nomutanosiblikni bosqichma-bosqich qisqartirishga, mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini oshirishga va transfertlardan foydalanish samaradorligini kuchaytirishga qaratilganini ko'rsatadi. Bu jarayon hududlarning iqtisodiy faolligini rag'batlantirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun muhim institutsional asos bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, jadval ma'lumotlari O'zbekistonda olib borilayotgan fiskal siyosat hududlar o'rtasidagi moliyaviy tengsizlikni kamaytirish, mahalliy budjetlarning barqarorligini oshirish va hududiy rivojlanishni muvozanatlashtirishga qaratilganligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Shuningdek, "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, hududlar o'rtasidagi moliyaviy tengsizlikni kamaytirish maqsadida sezilarli miqdorda mablag'lar ajratilishi belgilangan bo'lib, ushbu resurslar hududiy infratuzilmani rivojlantirish, ijtimoiy soha xarajatlarini moliyalashtirish va mahalliy budjetlarning barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Quyidagi 2-rasmda 2021-2026-yillar davomida davlat budjetidan mahalliy budjetlarga ajratilayotgan transfertlarning o'zgarish tendensiyasi aks ettirilgan.



2-rasm. 2021-2025-yillar davomida davlat budjetidan mahalliy budjetlarga ajratilayotgan transfertlar (mlrd. so'm) [1, 13]

2021-2025-yillar davomida O'zbekiston hududlari o'rtasida budjetlararo transfertlar hajmi sezilarli o'zgarishlar ko'rsatgan. 2022-yilda transfertlar hajmi 41 397,17 mlrd. so'mga yetib, 2021-yilga nisbatan 36,3 foizga o'sdi. 2023-yilda o'sish sur'ati pasayib, 46 011,74 mlrd. so'mni tashkil etdi, bu hududlararo moliyaviy nomutanosiblikni yumshatish va iqtisodiy salohiyati past

hududlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha fiskal siyosatning barqarorligini ko'rsatadi.

Shunga qaramay, 2024-yilda transfertlar hajmi keskin kamayib, 16 836,7 mlrd. so'mga tushdi (-63,4 foiz), keyingi yil esa 18 462,2 mlrd. so'mga oshdi (9,7 foiz). Ushbu tendensiya hududlarning daromad bazasini mustahkamlash, budjet barqarorligini ta'minlash va fiskal siyosat orqali kam rivojlangan hududlarga moliyaviy resurslarni

yo'naltirish amaliyotining davom etayotganini ko'rsatadi.

Shu tariqa, fiskal siyosat O'zbekiston sharoitida hududlararo moliyaviy nomutanosiblikni bartaraf etishda asosiy tartibga soluvchi instrument sifatida namoyon bo'lib, uning samarali amalga oshirilishi hududiy rivojlanishning muvozanatli va barqaror bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba fiskal siyosatni shakllantirish va amalga oshirishda davlatlarning institutsional xususiyatlari hamda iqtisodiy sharoitlariga qarab turli yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy sikllarning salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida kontrtsiklik fiskal choralar keng qo'llaniladi. Iqtisodiy pasayish davrida hukumatlar davlat xarajatlarini oshiradi va soliq yukini kamaytiradi, iqtisodiy yuksalish bosqichida esa fiskal konsolidatsiya siyosati amalga oshiriladi.

AQSh tajribasi inqiroz davrlarida keng ko'lamli budjet rag'batlantirish dasturlaridan foydalanish bilan tavsiflanadi. Xususan, 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz sharoitida soliq imtiyozlari, ijtimoiy transfertlarning kengaytirilishi hamda infratuzilmaviy loyihalarga investitsiyalarni o'z ichiga olgan antiinqiroz choralari paketi amalga oshirilgan. Yevropa mamlakatlari esa davlat moliyasini boshqarishda nisbatan konservativ yondashuvni qo'llab, budjet taqchilligi va davlat qarzi darajasini Maastrixt kelishuvi mezonlari doirasida cheklashga intiladi.

Osiyo mamlakatlari fiskal tartibga solishning o'ziga xos modellarini namoyon etadi. Xususan, Xitoyda davlat korporatsiyalari orqali faol investitsiya siyosati yuritilib, ustuvor tarmoqlarni maqsadli budjet moliyalashtirish mexanizmlari keng qo'llaniladi. Yaponiya esa demografik muammolar sharoitida iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash zarurati bilan bir qatorda yuqori davlat qarzi muammosiga duch kelmoqda.

Rossiya Federatsiyasining fiskal tizimi postsovet davrida sezilarli evolyutsiyani boshdan kechirib, beqaror budjet jarayonidan fiskal tartibga solishning institutsional mexanizmlarini shakllantirish bosqichiga o'tdi. Hozirgi davrda Rossiya fiskal siyosati neft narxlarining o'zgaruvchanligiga davlat xarajatlarining haddan tashqari bog'liqligini cheklovchi budjet qoidasiga asoslanadi hamda suveren jamg'armalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Davlat xarajatlarining tarkibi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ustuvor yo'nalishlarini aks ettirib, sog'liqni saqlash, ta'lim, demografiya va infratuzilma sohalarida milliy loyihalarni moliyalashtirishni o'z ichiga oladi. Soliq tizimi bevosita va bilvosita soliqlar kombinatsiyasiga asoslanib, qazib oluvchi tarmoqlardan olinadigan fiskal tushumlarning yuqori ulushi bilan ajralib turadi. Soliq qonunchiligini isloh qilish tadbirkorlik subyektlari uchun ma'muriy yukni kamaytirish va investitsion faollikni rag'batlantirishga qaratilgan.

Rossiya fiskal siyosatining o'ziga xosligi budjet daromadlarining energiya resurslari eksportiga yuqori darajada bog'liqligi bilan belgilanadi, bu esa tashqi iqtisodiy shoklarga nisbatan zaiflikni kuchaytiradi. Fiskal tartibga solish mexanizmlari sanksiya bosimi va texnologik suverenitetni ta'minlash zarurati sharoitida moslashtirilmoqda.

Fiskal siyosatni amalda qo'llash institutsional, iqtisodiy va siyosiy xarakterdagi bir qator cheklovlar bilan bog'liq. Iqtisodiy muammolarni aniqlash, fiskal qarorlarni qabul qilish va ularning natijalarini kuzatish o'rtasidagi vaqt oralig'i fiskal tartibga solishning tezkorligini pasaytiradi. Budjetni tasdiqlash va qonunchilikdagi o'zgarishlarni muvofiqlashtirish jarayonlarining murakkabligi tuzatish choralarining kechikishiga olib kelishi mumkin.

Makroiqtisodiy prognozlarning aniqligi muammosi fiskal rejalashtirishni yanada murakkablashtiradi. Iqtisodiy dinamikaning noto'g'ri baholanishi fiskal choralar yetarli

bo'lmisligi yoki ortiqcha qo'llanilishiga sabab bo'lib, mavjud nomutanosibliklarni yumshatish o'rniga kuchaytirishi mumkin. Ayrim hollarda siyosiy omillar budget qarorlarini qabul qilishda iqtisodiy maqsadga muvofiqlikdan ustun kelib, fiskal siyosatning samaradorligini pasaytiradi.

Davlat qarzi va budget majburiyatlari bilan bog'liq fiskal makonning cheklanganligi rag'batlantiruvchi choralarni qo'llash imkoniyatlarini qisqartiradi. Qarzdorlikning yuqori darajasi yangi qarz mablag'larini jalb qilishni cheklab, davlat qarziga xizmat ko'rsatish xarajatlarini oshiradi. Iqtisodiyotdagi tarkibiy nomutanosibliklar, mehnat unumdorligining pastligi va institutsional zaifliklar fiskal instrumentlarning ta'sirchanligini kamaytirib, barqaror iqtisodiy o'sishga erishishni murakkablashtiradi.

Xulosa va takliflar.

Maqolada hududlararo moliyaviy nomutanosiblikni kamaytirishda fiskal siyosatning ahamiyati ko'rsatildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra:

- ❖ Fiskal siyosat davlat xarajatlari, soliq siyosati va budgetlararo transfertlar orqali hududlararo moliyaviy farqlarni yumshatadi.

- ❖ O'zbekiston sharoitida kam rivojlangan hududlarni qo'llab-quvvatlash uchun budget transfertlari samarali vosita sifatida ishlatilmoqda. 2022-2024-yillar davomida hududlararo transfertlar hajmidagi o'zgarishlar fiskal siyosatning hududlarning moliyaviy barqarorligini oshirish va daromad bazasini mustahkamlashga qaratilganligini ko'rsatadi.

- ❖ Xalqaro tajriba fiskal siyosatni shakllantirish va amalga oshirishda davlatlarning institutsional xususiyatlari va iqtisodiy sharoitlarini hisobga olish zarurligini tasdiqlaydi.

- ❖ Fiskal siyosatning samaradorligini cheklovchi omillar: iqtisodiy prognozlarning aniqligi, siyosiy ta'sir, budget majburiyatlari va

tarkibiy iqtisodiy nomutanosibliklar hisoblanadi.

- ❖ Samarali hududiy fiskal siyosat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni oshirish, hududlararo tengsizlikni kamaytirish va mahalliy iqtisodiy faollikni rag'batlantirishda hal qiluvchi vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, fiskal siyosat hududiy rivojlanish strategiyasining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, u orqali moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash, iqtisodiy faollikni rag'batlantirish va hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish mumkin.

Hududlararo moliyaviy nomutanosiblikni qisqartirish hamda fiskal siyosatning samaradorligini oshirish maqsadida kompleks va tizimli yondashuvga asoslangan takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

Avvalo, budgetlararo transfertlarni taqsimlash mexanizmini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Amaldagi normativ-huquqiy baza doirasida joriy etilgan yondashuvni formulaviy model asosida ifodalash mazkur mexanizmning shaffofligi va tushunarlilikini oshiradi. Shu orqali tizimni yanada takomillashtirish hamda budgetlararo transfertlar hajmini hududlarning soliq salohiyati, aholining daromad darajasi, infratuzilma bilan ta'minlanganlik darajasi va ijtimoiy yuklama ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'lash imkoniyati yaratiladi. Mazkur yondashuv transfertlarning manzilliligi va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Keyingi muhim yo'nalish sifatida mahalliy budgetlarning daromad bazasini mustahkamlashga qaratilgan institutsional islohotlarni chuqurlashtirish lozim. Jumladan, mahalliy soliq va yig'imlar ulushini bosqichma-bosqich oshirish, hududiy boshqaruv organlariga ayrim soliq stavkalarini belgilash bo'yicha cheklangan vakolatlar berish orqali ularning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish mumkin. Bu esa budgetni markazsizlashtirish tamoyillariga to'liq mos keladi.

Shuningdek, oʻrta muddatli budjet rejalashtirish tizimini hududiy darajada keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. 2023-2025-yillarda amalga oshirilgan budjet islohotlari doirasida joriy etilgan uch yillik budjet rejalashtirish amaliyotini hududlar kesimida yanada chuqurlashtirish moliyaviy barqarorlikni taʼminlash, budjet prognozlarining aniqligi va ishonchligini oshirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, budjet xarajatlari samaradorligini baholash mexanizmlarini kuchaytirish fiskal siyosatning natijadorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Natijaga yoʻnaltirilgan budjetlashtirish tamoyillarini

keng joriy etish, davlat dasturlari va hududiy loyihalar samaradorligini baholovchi aniq indikatorlar tizimini shakllantirish moliyaviy resurslardan oqilona va maqsadli foydalanishni taʼminlaydi.

Shu bilan birga, budjet ochiqligi va jamoatchilik nazoratini rivojlantirish fiskal siyosat samaradorligini oshirishning muhim sharti sifatida namoyon boʻladi. "Ochiq budjet" axborot portali orqali hududiy budjetlar ijrosi ustidan doimiy monitoringni yoʻlga qoʻyish hamda fuqarolarning budjet jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish hududlararo moliyaviy nomutanosibliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasining "2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida"gi OʻRQ-1105-son Qonuni
2. Malla M.H., Pathranarakul P. *Fiscal Policy and Income Inequality: The Critical Role of Institutional Capacity* // *Economies*. 2022. Vol. 10, №5. P. 115.
3. Lustig N. *Fiscal Policy, Inequality and the Poor in Developing Countries* // *CEQ Working Paper*. 2017. №23.
4. Loras-Gimeno D., Gómez-Bengoechea G., Díaz-Lanchas J. *Fiscal Redistribution and the Narrowing Urban-Rural Income Gap* // *Regional Studies*. 2024.
5. *Fiscal Policy and Inequality in Middle- and High-Income Countries* // *Macroeconomic Dynamics*. 2025. Vol. 29.
6. Wu J.-X., He L.-Y. *Urban-Rural Gap and Poverty Traps in China* // *arXiv preprint*. 2016.
7. Abdugaffor Juraev, DSc. (2024). *Enhancing Tax Administration In Transition Economies Lessons For Uzbekistan*. *Kurdish Studies*, 12(5), 1441-1445.
8. Мейлиев О. Р. Влияние налогов на формирование доходов местного бюджета // *Экономика и бизнес: теория и практика*. – 2020. – №. 8. – С. 107-113.
9. Ergashev U.I. *Hudud soliq salohiyati va uni baholashning nazariy asoslari* // *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*. 2024.
10. Sharipov N. *Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliq salohiyatining ahamiyati* // *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*. 2025.
11. Poyonov O., Almardonov M., Tuxtabayev J. *Oʻzbekistonda hududlarning soliq salohiyatini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish* // *Green Economy and Development*. 2025.
12. Uskenbayeva D. *Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini taʼminlashda mahalliy budjetlar barqarorligini oshirish masalalari* // *Science and Education*. 2023. Vol. 4, №9.
13. www.imv.uz – Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb sahifasi.